



## **Oilani (turmush o'rtog'i va bolalari bilan) birlashish maqsadida viza olish uchun kerakli hujjatlar haqida eslatma**

Umumiy eslatma:

- Barcha arizachilar arizalarni **shaxsan o'zlari** topshirishlari shart. **Qabulga ro'yxatdan o'tish qabulga yozilish tizimi doirasida faqat internet orqali amalga oshiriladi.**
- Barcha hujjatlar/ma'lumotnomalar/tarjimalar **asli va har bir hujjatdan DIN A4 formatdagi ikkita kseronushasi** topshirilishi lozim ekanligiga e'tibor berishingizni so'raymiz (asl nusxalar hujjatlar tekshirilganidan keyin Sizga qaytariladi). Xorijiy tilda to'ldirilgan hujjatlar vakolatga ega tarjimon tomonidan nemis tiliga o'g'irilgan bo'lishi lozim.
- Qoidaga binoan, oilani qayta birlashtirish doirasida faqat 16 yoshgacha bo'lgan bolalar so'rovnoma topshirish uchun qo'yiladigan qo'shimcha shartlarni bajarmasdan ota-onasi bilan yoki vasiylik huquqiga ega ota yoki ona bilan Germaniyaga safar qilishlari mumkin. 16 yoshdan katta bo'lgan bolalar nemis tilini bilsalargina, oilani qayta birlashtirish doirasida Germaniyaga safarga chiqishlari mumkin. Ular Germaniya hayot tarziga moslasha olishlari hamda ota-ona yoxud vasiylik huquqiga ega ota yoki ona Germaniyada yashash uchun qonuniy maqomga ega bo'lishi shartdir. Ushbu shart-sharoitlar mavjud bo'lmasa, 16 yoshdan katta yoki balog'at yoshiga to'lgan bolalar ota-ona bilan qayta birlashish doirasida yoki ona-onaning balog'at yoshiga to'lgan bolalari bilan qayta birlashishi doirasida Germaniya hududida turish haqidagi qonunning §36 ga binoan faqat **maxsus holatlardagina** Germaniyaga safarni amalga oshirishlari mumkin. Ushbu masala jiddiy me'zonlar asosida ko'rib chiqilishi va **shuning uchun barcha asosli hujjatlarni viza so'rovnomasini topshirish vaqtidayoq taqdim etish kerakligini** inobatga olishni so'raymiz.

So'rovnoma topshirish uchun asos sifatida zarur bo'lgan qarindoshlik rishtalari mavjudligini fuqarolik holati bo'yicha guvohnomalar asosida tasdiqlash lozim. **O'zbekistonda berilgan hujjatlarni** tasdiqlash sharti bekor qilingan. Qoidaga muvofiq, O'zbekistonda berilgan fuqarolik holati bo'yicha guvohnomalar belgilangan jarayon asosida tekshirilishi lozim. Bu masaladagi qarorni elchixonaga qabul qiladi. Viza bo'limiga qaytadan so'rovnoma topshirishning oldini olish maqsadida so'rovnoma taqdim etayotgan vaqtinizdayoq „O'zbekiston Respublikasida berilgan hujjatlarning muvofiqiligini tekshirish haqidagi eslatma“da ko'rsatilgan barcha hujjatlarni topshirishni hamda kerakli garov pulini o'zbek so'mida to'lashni maslahat beramiz.

Viza so'rovnomasi **Germaniyadagi xorijliklar masalalari bo'yicha idoraga (Auslanderbehörde) qaror qabul qilish uchun yuboriladi.** Shu sababga ko'ra Siz o'z so'rovnomangizda qarindoshingizning **to'liq manzilini** (ko'cha, pochta indeksi va turar joy nomini) ko'rsatishingiz lozim.

Germaniya hududiga kirib kelishingiz bilan bu haqida yashash joyingizdagi xorijliklar masalalari bo'yicha mutassadi idoraga bevosita xabar berishingiz kerak. Ushbu idora Germaniya hududida qolishingiz uchun yakuniy xulosani beradi.

So'rovnomani ko'rib chiqish **kamida 6-8 haftani** tashkil etishini inobatga olishingizni so'raymiz. Agar qabul qilish oldidan hujjatlarni tekshirib chiqish lozim bo'lsa, ushbu muddat uzayadi. Agar so'rovnomangiz borasida **ijobiy qaror** qabul qilingan bo'lsa, elchixonaga xodimlari bilan bog'lanadi. Qabul qilingan salbiy qaror (elektron) pochta orqali yuboriladi yoki arizachi ushbu qarorni shaxsan o'zi olib ketishi mumkin. Sizga viza rasmiylashtirish uchun ruxsat beriladigan bo'lsa, unda Sizga xorijda doimiy yashash uchun chiqish vizasini olishda kerak bo'ladigan va O'zbekiston

Respublikasi idoralariga (XChK - OVIR) taqdim etiladigan ma'lumotnomani zarur bo'lgan holatlarda olishingiz mumkin.

**Qabulga yozilish va viza bo'limining qabul vaqti haqidagi batafsil ma'lumotlar**  
**“Viza olish uchun kerakli hujjatlar haqida eslatma”** va **„Qabulga avvaldan yozilish tizimi haqidagi eslatmada“** da keltirilgan.

**Turmush qurgandan so'ng oilani birlashtirish** maqsadida viza olish uchun quyidagi hujjatlar (asli va ikkitadan DIN A4 formatdagi nusxasi bilan) talab qilinadi:

1. **Nemis tilida batafsil to'ldirilgan va arizachining shaxsiy imzosi qo'yilgan 2 dona viza so'rovnoma blanki hamda 3 dona biometrik fotosurat.** Blanklarni elchixonaning internetdagi [www.taschkent.diplo.de](http://www.taschkent.diplo.de) web-sahifasidan olishingiz mumkin.
2. Yana kamida bir yil amal qilish muddatiga ega bo'lgan **fuqarolik pasporti**, uning 2-3 (shaxsiy ma'lumotlar) hamda O'zbekistonda ro'yxatga qo'yilganlik to'g'risidagi ma'lumotlar haqidagi sahifalaridan nusxasi bilan.
3. Oilani birlashtirish maqsadida ariza topshirilgan va Germaniyada yashayotgan umr yo'ldoshining pasportining barcha sahifalaridan nusxalar.
4. **Chet elliklarning Germaniya Federativ Respublikasi hududida istiqomat qilish shartlari haqidagi qonunning § 54, 2 abzatsi, 8 punkti hamda §53 ga muvofiq izoh** va arizachining undagi shaxsiy imzosi
5. O'zbekiston Respublikasida berilgan va notarius tomonidan tasdiqlangan nikoh guvohnomasining nemis tiliga tarjimasi yoki Germaniyada berilgan nikoh guvohnomasi.
6. Nemis tilidan bilimga (A1 darajasida) ega ekanlikni tasdiqlovchi hujjatlar; **„Oila birlashishi uchun nemis tili bilimlarini tasdiqlash haqidagi“** alohida eslatmaga e'tiboringizni qarating.

*Voyaga etmagan bolalar birgalikda safarga chiqishsa:*

7. **Bolalarning tug'ilganligi haqida O'zbekiston Respublikasida berilgan guvohnomalar va ularning nemis tiliga notarial tasdiqlangan tarjimasi; nikohdan tashqarida tug'ilgan bolalar bo'lsa, FHDYO bo'limidan otani bolaning tug'ilganlik haqidagi guvohnomasiga kiritish uchun asos haqida xat.**
8. Siz bilan birga safarga chiqayotgan bolalarga yakka vasiylik huquqiga ega ekanligingizni tasdiqlovchi hujjat: ota-ona ajrashgan bo'lsa, nikoh ajralganligi va ota yoki onaning vasiylik huquqiga ega ekanligi ko'rsatilgan qaror, yoxud ota yoki onaning bolaning chet elga butunlay jo'nab ketishiga rozilik xati yoxud ota yoki onaning olamdan o'tganligi haqida hujjat; bola nikohdan tashqarida tug'ilgan bo'lsa, ota yoki onaning bola chet elga butunlay jo'nab ketishiga rozilik xati.

**Bolalarni Germaniyada yashaydigan ota-onasi bilan birlashtirish** maqsadida viza olishga ariza berish uchun quyidagi hujjatlar talab qilinadi:

1. **Nemis tilida batafsil to'ldirilgan va bolaga ota-onalik** (vasiylik) huquqiga ega bo'lgan shaxsning **imzosi qo'yilgan 2 dona viza so'rovnoma blanki hamda 3 dona biometrik fotosurat.** Blanklarni elchixonaning viza bo'limiga kirish qismida yoki elchixonaning internetdagi [www.taschkent.diplo.de](http://www.taschkent.diplo.de) web-sahifasidan olish mumkin.
2. Bolaning kamida bir yilgacha amalda bo'ladigan **pasporti** yoxud **ota-onasining** yoki yakka vasiylik huquqiga ega bo'lgan ota yoki onaning bola haqidagi ma'lumot kiritilgan **pasporti**, uning 2-3 (shaxsiy ma'lumotlar) hamda O'zbekistonda ro'yxatga qo'yilganlik to'g'risidagi ma'lumotlar haqidagi sahifalaridan nusxasi bilan.
3. Bolaning yoki ota yoki onadan birining bola haqida ma'lumot kiritilgan pasportining 2-3 (shaxsiy ma'lumotlar) hamda O'zbekistonda ro'yxatga qo'yilganlik to'g'risidagi ma'lumotlar haqidagi sahifalaridan nusxasi bilan.

4. arizachining ota-onasi yohud unga vasiylik huquqida ega shaxs tomonidan imzolangan **chet elliklarning Germaniya Federativ Respublikasi hududida istiqomat qilish shartlari haqidagi qonunning § 54, 2 abzatsi, 8 punkti hamda §53 ga muvofiq izoh**
5. Bolaning **tug'ilganlik haqida guvohnomasi (yuqoridagi 6 bandga muvofiq).**
6. Agar bola Germaniyaga otasi yoki onasining yoniga yoxud otasining yoki onasining umr yo'ldoshi yoniga borayotgan bo'lsa: ota-onadan birida bolaga nisbatan yakka vasiylik huquqi bo'lgan holatda, bu nikoh ajralganligi haqidagi qaror bilan yoxud ota yoki onaning bolaning chet elga butunlay jo'nab ketishiga rozilik xati yoxud ota yoki onaning olamdan o'tganligi haqidagi tegishli hujjatlar bilan asoslab berilishi shart.

Oilani Germaniya fuqarosi bo'lmagan shaxs bilan birlashishi uchun olinadigan viza badali 75 yevroni va oilani birlashtirish maqsadida ota yoki onasi bilan safarga ketayotgan bolalar uchun 37,50 yevroni tashkil etadi. Viza badal to'lovi so'rovnoma topshirilayotganda **faqat o'zbek so'mida** amalga oshiriladi. Kupyuralar 2001 yildan eski bo'lmashligi, yaxshi holatda, muhr va yozuvlarsiz bo'lishi shart. Germaniya fuqarosining turmush o'rtog'i yoki umr yo'ldoshi, balog'at yoshiga yetmagan, turmush qurmagan farzandlari hamda balog'at yoshiga yetmagan Germaniya fuqarolarining ota va onalari viza badalini to'lashdan ozod etiladi.